

Yangi yo‘nalish: hamma yo‘llar Rimga olib boradi

2022 26 Iyul

Uzbekistan Airways joriy yilning kuz mavsumidan Urganch – Rim – Toshkent yo‘nalishi bo‘yicha parvozlarni amalga oshirishni boshlaydi. Spagetti va sharobi bilan mashhur bo‘lgan mamlakatga aviaqatnovlar har seshanba kuni amalga oshiriladi.

Urganchdan uchish: 14:40 (Toshkent vaqti bilan)

Rimga yetib borish: 17:45 (Rim vaqti bilan)

Rimdan uchish: 19:15 (Rim vaqti bilan)

Toshkentga yetib kelish: 04:15 (Toshkent vaqti bilan)

Urganch – Rim yo‘nalishi bo‘yicha bagaj bilan aviachipta 3 705 265 so‘mdan, Urganch – Rim – Toshkent yo‘nalishidagi aviachiptalar esa 7 025 360 so‘mdan boshlanadi.

Narxlar 26.07.2022 holatiga ko‘ra amal qiladi.

Bugun Rimga aviachiptalarni xarid qiling va Vatikan, Kapitoliy, Kolizey va Panteon go‘zalligini ko‘rish uchun Italiyaga sayohatga otlaning.